



THE ROLE OF PERSONNEL TRAINING IN THE NATIONAL SYSTEM FOR DEVELOPING SPIRITUAL AND IDEOLOGICAL WORK IN SOCIETY

Zokir Turginovich Zamonov

PhD, Associate Professor

Uzbek State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

Farruh Eshmamatov

Independent Researcher

Uzbek State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: national system, education, development, spiritual foundation, worldview, national identity, ideology, active citizen, social space, social capital, people's well-being.

Received: 05.05.25

Accepted: 07.06.25

Published: 09.06.25

Abstract: This article discusses the fundamental principles of developing the national education system, which serves as the foundation for spiritual growth, strengthening democracy, and enhancing the competitiveness of the economy to ensure the well-being of the people. It also emphasizes the importance of shaping the worldview, consciousness, and heart of the younger generation in today's complex global context. The article highlights how, in the future, they should become successful individuals, entrepreneurs, and devoted citizens, remaining engaged in the life of the state and society, understanding governance, and properly perceiving social skills. All these factors contribute to their development as free and active citizens. The national education system plays a crucial role in achieving these goals and nurturing the social and spiritual aspects of the youth.

JAMIYATDA MA'NAVIY-MAFKURAVIY ISHLARNI RIVOJLANTIRISHDA KADRLAR TAYYORLASH MILLIY TIZIMINING TURTGAN O'RNI

Zokir Turg'inovich Zamonov

O'zDJTU, s.f.f.d. (PhD), dotsent

Toshkent, O'zbekiston

Farruh Eshmamatov*O'zDJTU mustaqil tadqiqotchisi
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: milliy tizim, ya'lim, taraqqiyot, ma'naviy asos, dunyoqarash, milliy o'zlik, mafkura, faol fuqaro, ijtimoiy makon, ijtimoiy kapital, xalq farovonligi.

Annotatsiya: ushbu maqolada davlat taraqqiyotining yangi bosqichida ijtimoiy-madaniy o'sish, demokratiyani mustahkamlash va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish orqali xalq farovonligini ta'minlash, ma'naviy yuksalishga asos bo'luvchi milliy ta'lim tizimini rivojlantirishning o'ziga tamoyillari asoslangan. Shuningdek, bugungi global makonda, murakkab sharoitda yosh avlodning dunyoqarashi ongi va qalbi, kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi, ishbilarmon va jonkuyar bo'lishi, davlat va jamiyati hayotida befarq bo'lmasligi, boshqaruvga nisbatan legitim bo'lishi, ijtimoiy hayot ko'nikmalarini to'g'ri idrok qila olishi uning erkin fuqaro, faol shaxs bo'lishini ta'minlashda muhim vositachi bo'lmish milliy ta'lim tizimi bilan bog'liq ijtimoiy-ma'naviy jihatlariga urg'u berilgan.

**РОЛЬ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ В НАЦИОНАЛЬНОЙ СИСТЕМЕ РАЗВИТИЯ
ДУХОВНОЙ И ИДЕОЛОГИЧЕСКОЙ РАБОТЫ В ОБЩЕСТВЕ****Зокир Тургинович Замонов***Кандидат наук (PhD), доцент**Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан***Фаррух Эшмаматов***Независимый исследователь,**Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: национальная система, образование, развитие, духовные основы, мировоззрение, национальная идентичность, идеология, активный гражданин, социальное пространство, социальный капитал, благосостояние народа.

Аннотация: В данной статье рассмотрены основные принципы развития национальной системы образования, которая служит основой для духовного роста, укрепления демократии и повышения конкурентоспособности экономики с целью обеспечения благосостояния народа. Охарактеризованы социально-духовные аспекты, связанные с национальной системой образования, которая играет важную роль в формировании мировоззрения, сознания и

сердца молодежи в условиях современного глобального мира. В статье также подчеркивается, как важен процесс воспитания будущих людей, которые будут стремиться быть предприимчивыми и преданными своему делу, не быть безразличными к жизни государства и общества, а также понимать и правильно воспринимать социальные навыки. Это способствует их становлению как активных и свободных граждан.

Jamiyatni rivojlantirish, iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy-madaniy jarayonlarni barqarorlashtirish, ma'naviy-mafkuraviy ishlar samaradorligini oshirish, birinchi navbatda, jamiyatdagi har qanday intilish, buyuk maqsad va g'oyalarning asosini tashkil etuvchi yoshlar ta'lim-tarbiyasi bilan bevosita bog'liqdir.

Xususan, bunda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev: "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo, biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda", deb alohida qayd etmoqda.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin ta'lim sohasiga jiddiy e'tibor qaratildi. Mustaqil O'zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning umumta'lim maktablarining yoshlarni ma'naviyat va ma'rifat egasi qilib tarbiyalashdagi hissasini e'tiborga olib: "...jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch-ma'rifatdir. ... Aql-zakovatli yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'yilgan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi", deya ta'kidlagan fikrlari ham alohida e'tiborlidir.

Shu bois respublikada mafkuraviy aqidalarga va bir qolipdagi safsatabozlikka bo'ysunadigan, inson, xalq, jamiyat manfaatlariga putur yetkazayotgan siyosiy, mafkuraviy va davlat tuzilmalaridan dadil voz kechila boshlandi. Bu borada mamlakatda 1991-yil 17-sentabrda e'lon qilingan mamlakat Prezidentining "Respublika davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarini, hamda xalq ta'limi sistemasini partiyadan xoli etish to'g'risida"gi Farmoni muhim qadam bo'ldi. Ushbu Farmonda: "Belgilab qo'yilsinki, respublika davlat apparaty idoralarida va xalq ta'limi sistemasida si- yosiy partiyalar va harakatlarning tashkiliy tuzilmalari tashkil etilishiga bundan buyon yo'l qo'yilmaydi", deya ta'kidlandi. Zero, mazkur Farmonning mohiyatidan anglashiladiki, maorifni jahon ta'lim tizimi tajirbasiga yaqinlashtirish orqali yakka mafkura ta'siridan ozod qilish maqsadi yotar edi.

Istiqlol davriga kelib yoshlarni demokratik qadriyatlar, milliy o'zlikni anglash tamoyilidan kelib chiqib ta'limni ham zaruriy amaliy choralar asosida tizimli ravishda yo'lga qo'yishning me'yoriy asoslarini ishlab chiqishning zarurati yuzaga keldi.

1992-yil 2-iyulda mustaqillikning ilk qonunlaridan biri bo'lgan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (636-XII-son) qabul qilindi. Mazkur Qonunda ilk marotaba O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining bilim olish huquqini ta'minlashga qaratilgan normalar o'z ifodasini topdi. Mazkur hujjat respublikamiz ta'lim sohasini qaytadan ko'rib chiqish masalasini qonunlashtirdi va ta'lim tizimida qilinadigan vazifalarni belgilab berdi. Bu jamiyatda har qanday mafkuradan holi, mustaqil davlatning o'z milliy mafkurasi asosida ta'lim berishning o'ziga xos yo'li va yo'nalishini belgilab olgani bilan belgilanar edi.

Ta'lim to'g'risidagi qonunda umumiy ta'lim uzluksiz davlat ta'limi tizimida asosiy bo'g'in bo'lib, ta'lim oluvchilar ilmiy bilim, mehnat va boshlang'ich kasbkor ko'nikmalari, ishbilarmonlik asoslarini egallashlarini, shuningdek o'z ijodiy qobiliyatlarini, ma'naviy fazilatlarini rivojlantirishlarini ta'minlashi qayd etilib, umumiy ta'lim uch bosqich: boshlang'ich (1–IV sinflar), tayanch (V–IX sinflar) va o'rta (X–XI (XII) sinflar) bosqichidan iborat ekanligi belgilab berilgan edi.

Dastlab, III bosqich (o'rta (X–XI (XII) sinflar)) ta'lim muassasalariga o'quvchilar qabul qilish tanlov asosida amalga oshirildi. O'rta umumiy ta'lim muassasalarida ixtisoslashgan ta'lim amalga oshirilishi, o'quvchilar tanlovi bo'yicha kurslar joriy etilishi va fanlar chuqur o'rgatilishi mumkinligi qayd etildi. Bunday kurslarning dasturlari umumta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlanadi. Mazkur bosqichda ham dasturlarining umumta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlanish huquqining berilishi, davlat ta'lim standartlarining bajarilmasligi yoki qisman bajarilishiga olib kelishi mumkin edi. Bu o'z o'zidan ta'lim tizimida borasidagi me'yoriy asoslarni takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltira boshladi.

Biroz vaqt o'tib, jumladan, 1997-yil "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini amaliyotga tatbiq etish bilan bog'liq Vazirlar Mahkamasining "Ta'lim to'g'risidagi normativ hujjatlarini tasdiqlash va ularni amalga oshirishga oid chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'limning barcha bo'g'inlarini bir-biri bilan bog'lash, uzluksiz va uzviylashgan ta'lim tizimini yaratish nazarda tutilganligini ham ta'kidlab o'tish lozim. Negaki, kadrlar ta'lim va tarbiyasi orqali jamiyatda amalga oshirilayotgan yangilanish, rivojlangan fuqarolik jamiyatini qurilishi jarayonlariga moslashtirish edi.

Ya'ni, yuqori malakali hamda zamonaviy bilimlarni o'zlashtirgan zamon talablariga mos fikrlay oladigan kadrlarni tayyorlash o'z davri uchun zarur edi. Zero, kadrlar masalasi jamiyatdagi

iqtisodiy-ijtimoiy va mafkuraviy jarayonlarni tahlil etish va uning nazariy asoslarni ishlab chiqish va shu asosda ish ko'rishning muhim komponenti hisoblanadi.

Shuningdek, kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish ko'zda tutilganligi bilan e'tirofga loyiq dastur edi. Kadrlar tayyorlash tizimida o'zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirish va, shu bilan birga, ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvini ta'minlash nazarda tutilgan edi. Dasturda kadrlar tayyorlashning milliy modeli ishlab chiqilib, shaxs, davlat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish kabi tamoyillari ko'rsatib o'tilgan holda, uni ro'yobga chiqarishning tashkiliy chora-tadbirlari ham belgilab berilgan edi. Mazkur dastur milliy ta'lim tizimining uzluksiz ravishda amalga oshirishning ham huquqiy, ham dasturiy va ham milliy darajasini ko'rsatib berdi.

Milliy dasturning asosiy maqsadi esa, ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uning istibdod yillaridan qolgan mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan to'la halos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuksak malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratishdir.

«Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning asosiy tarkibiy qismlarini shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish tashkil etadi. Mazkur dasturni ro'yobga chiqarish ta'lim tizimini tubdan isloh qilishni va uni o'z vaqtida hal qilishni taqozo etadi. Binobarin, uning bosh maqsadi yurt, millat taqdiriga daxldorlik, inson manfaatlarining har narsadan ulug'ligi, mustaqillikni mustahkamlash bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakaga alohida ahamiyat berilgan. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalar, ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashning rivojlanishiga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, zamonaviy yetuk malakali kadrlar tayyorlash masalasi qat'iy qilib qo'yilgan.

Milliy dasturning muhim jihatlaridan biri – yosh avlodning ma'naviy barkamol bo'lib yetishishi bo'lib, bu ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi islohotlarni ham bevosita ta'lim tizimida yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Insoniyat tarixiy taraqqiyotining har bir bosqichida jarayonlar qanday kechishidan qat'i nazar yangilanishlar, rivojlanish va taraqqiyotni qurish mumkin. Ana shu rivojlanishlar asosida doimo ta'lim va tarbiya masalasi turishi kunday ravshan.

Yangi davrning yangi talablarini ro'yobga chiqarish uchun ta'lim va tarbiya maqsadi, vazifalari, usullari, shakllari doimo yangilanib kelgan. Ammo bu masalaga hamma vaqt ham davlat darajasida e'tibor qaratilavermagan. Afsuski, sobiq tuzum davrida «ta'lim va tarbiya birligi» iborasi «ta'limning o'zi tarbiyalaydi» qabilida talqin qilindi. Tarbiya, uning aniq natijalari uchun hech kim javob bermas edi. Buning natijasida faqatgina bir tomonlama bilimga ega bo'lgan odamlar ko'paydi va ular amalga o'tirib olib, yaxshi tarbiya ko'rmaganligi sababli, nafaqat axloq chegaralaridan chiqishdi, balki jinoyatchilikni ham chetlab o'tmadilar. Chunki ular bilimga ega

bo'lsalar-da, Vatanga fidoyi, milliy davlatga e'tiqodli, millatparvar va sadoqatli emas edilar. Ayni ana shular oqibatida yurtimizda salohiyatli kadrlarning yuqolib borishiga sabab bo'ldi. Mustaqillikka erishgan keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida bu masalaga davlat darajasida alohida e'tibor qaratildi. Kadrlar tayyorlashning milliy modeli, dasturi ishlab chiqildi.

“Ta’limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi, erkin shaxsning shakllanishga olib keladi. O’zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo’lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo’lamiz. insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo’lamiz. Ana shundan keyin ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Shunda odam, olomon bo’lib, har lahzada serkaga ehtiyoj sezib emas, aksincha, o’z aqli, o’z tafakkuri, o’z mehnati, o’z mas’uliyati bilan ongli tarzda ozod va hurfikrli inson bo’lib yashaydi”, deya ta’kidlagan edi I.A.Karimov. Vaholanki, Kadrlar tayyorlash milliy modelida uzluksiz ta’limning fan bilan va ishlab chiqarish jarayoni bilan uzviy bog’liqligi va birligi belgilab beriladi.

Milliy modelga ko’ra, ta’lim tizimini yangilash – tabiiy ravishda milliy merosimizni o’rganish va uni pedagogik tafakkur iste’moliga olib kirish zaruriyatini vujudga keltirdi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki milliy merosimizning g’oyaviy negizi - shaxs tarbiyasi, uning ma’naviy ehtiyojlariga da’vogar bo’lgan omillarni o’rganishdan iborat bo’lib kelgan, ushbu muammo hozirda ham jamiyatimizda olib borilayotgan siyosatda eng muhim masalalardan biri sifatida namoyon bo’lmoqda. Ajdodlarimizning yaratuvchanligi shaxs manfaatlariga qaratilgan bo’lsa, ayni vaqtda mustaqil davlatimizda amalga oshirilayotgan barcha yangiliklar ham inson kelajagi uchun xizmat qilishni ko’zda tutadi. Zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimi va milliy meros asosidagi g’oyaviy uyg’unlik – ta’lim-tarbiya jarayonida milliy merosning ma’naviy-ma’rifiy zaminlariga tayanish zarurligini ham anglatadi.

Milliy manfaatlar va milliy rivojlanish avvalo milliy qadriyatlarga, boy ma’naviy-axloqiy mezonlarimizga bog’liq bo’ladi, buni ta’lim jarayonida qo’llash kutilgan natijani berishi nazarda tutiladi. Aslida ham, yuksak ma’naviyat, yuksak madaniyat va bos tarixiy meros ta’lim va tarbiya asosida sayqallanadi, jamiyatda ijtimoiy mobilizatsiya jarayoniga kirishib boradi.

Zero, O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi" Qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” kadrlar tayyorlash milliy modelini ro’yobga chiqarishning huquqiy asoslarini belgilab bergan bo’lib, ular har tomonlama kamol topgan, ta’lim va kasb-hunar turlarini ongli ravishda tanlagan va keyinchalik puxta o’zlashtirgan, jamiyat, davlat va oila oldida o’z javobgarligini xis etadigan ijtimoiy faol shaxslarni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Soha olimi Sh.To’rayevning ta’kidlashicha, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning qabul qilinishi ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, xalqaro ta’lim standartlari va boy an’anaviy tajribalar asosida qabul qilingan kadrlar tayyorlash haqidagi milliy dastur va ta’lim haqidagi qonun

mamlakatimizning yangi talab va ehtiyojlarini qondirishning huquqiy asoslarini yaratdi va qisqa vaqt mobaynida katta natijalarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Qisqa fursatda ta'lim tizimining hamma bo'g'inlari, maktabgacha ta'limdan to oliy ta'limning eng yuqori bosqichlarida tub o'zgarishlar amalga oshirildi.

Milliy dasturning e'tiborli tomoni yana shundaki, unda jamiyat yosh avlodiga ta'lim va tarbiyani uzluksiz ravishda berib borish orqali yosh-avlodga chuqur va zarur bilim, ma'rifat ulashish asosida ularda ajdodlarimiz ma'naviy moddiy merosini asrab-avaylash, qolaversa, ularni yanada boyitish fazilatlarini shakllantirishga xizmat qilishiga qaratilganligida edi.

Biz buyuk kelajakni yaratmoqchi ekanmiz, bunga puxta ishlangan va chuqur ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan mafkura orqaligina erishishimiz mumkin. Bu ayniqsa, yoshlarimizni tarbiyalashda asosiy qurol bo'lib xizmat qilishi kerak.

Boshqacha so'z bilan aytganda, ta'lim tizimida mafkuraviy jarayon kishilarning manfaat va ehtiyojlari bilan uyg'unligini ta'minlagan holda unga erishish mumkin. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun esa quyidagi dolzarb vazifalarni hal etish lozim bo'ladi: shaxs bilan davlat, inson bilan jamiyat munosabatlarining batamom yangicha mazmun va mohiyatga ega bo'lishga erishish, fuqarolik jamiyati asoslarini yaratishda uning insonparvarlik tabiati ustuvorligini ta'minlash; yangicha qadriyatlar va demokratik tamoyillarni tafakkur tizimiga moslashtirish; har qaysi fuqaro, har qaysi inson jamiyat taraqqiyoti va uning yangilanishiga bo'lgan o'z munosabati va o'rni, o'z burchini aniqlab olishi va unga vijdonan amal qilishi; milliy istiqlol mafkurasining hayotimizdagi o'rni, uning asosiy tamoyillarini ishlab chiqish bilan bog'liq ilmiy-nazariy masalalar tadqiqining uzluksizligini ta'minlash; mafkurani jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmuni, ularning intilishlari, xalq tabiati, turmush va tafakkur tarziga jamiyat milliy manfaatlarining qay darajada mos tushishini anglatuvchi o'ziga xos mezon sifatida shakllantirish; eng muhimi, milliy mafkuraga yondashganda xalq manfaati, yurt tinchligi va Vatan ravnaqi, millatlararo va diniy bag'rikenglik kabi tamoyillarga tayanish lozim bo'lishini doimo nazarda tutish kerak bo'ladi.

Yuqori malakali kadrlari yetishtirish, o'z navbatida, xalqimizning ko'p asrlik ma'naviyati va milliy qadriyatlari, hayotiy udumlariga yoshlarning qarashlarini shakllantirish va asrash bo'lgan intilishlarini ro'yobga chiqarsa, ikinchi tomondan esa, turli xil mafkuraviy xatarlarga qarshi samarali va oqilona kurashish yo'llarini qo'llashga imkon beradi.

Mustaqillikni mustahkamlash hamda yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda jahon talablariga mos ta'lim tizimini joriy etish, ta'lim sohasini malakali kadrlar bilan ta'minlash barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida qaraldi. Shu maqsadda ta'limning normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylandi.

Qolaversa, istiqlolning dastlabki bosqichida mamlakatimizda jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun dahldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimi shakllandi.

Vaholanki, milliy g'oya va mafkurani inson ongi va qalbiga yetkazish ta'lim tizimidan boshlanadi va u bosqichma-bosqich ravishda yoshlar qalbu shuurida ifodalanib boradi. Qolaversa, yoshlarda g'oya va mafkuralar shakllanishining ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-axloqiy negizlari, ma'rifiy asoslari milliy manfaatlar bilan uyg'unlashgan tarzda o'quv jarayonida nazariy jihatdan asoslab borilsa, mafkuraviy bo'shliq va mafkuraviy ozurdalik barham topadi.

O'zbekistonda kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat siyosati raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash, ishlab chiqarish va yuksak salohiyatli kadrlar yetkazib berishga mo'ljallangan yagona tizimga yo'naltirilgan. Ta'lim tizimini takomillashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, bir tomondan, aholining intellektual salohiyati darajasining oshishiga zamin yaratishi, ikkinchi tomondan esa uning iqtisodiyotning rivojlanishi, iqtisodiy o'sishga erishishida namoyon bo'ladi. Kuchli xalqaro raqobat sharoitida mavjud iqtisodiy muammolarni hal etish uchun aholining intellektual salohiyatidan to'liq va unumli foydalanishni ta'minlash zarur. Bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg'unlashtirish, ta'lim hamda tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterga ega ekanligi bilan tavsiflanadi. Bilim ta'lim sohasining mahsuli sifatida o'ziga xos belgilarga ega. Xususan, uning bebaho ijtimoiy ne'matligi; cheklanmaganligi va foydalangan sari kamaymasligi; makonga bog'liq emasligi; qaytarilmasligi; vujudga keltirgan qiymati keyin undan foydalanish intensivligiga bog'liq emasligi; vaqt bilan bog'liqligi; tezda tarqalishi va eskirishi; bilimlarni olguncha ularni obyektiv baholashning imkoniyati yo'qligi va hokazolar shunday belgilar sirasidandir. Aslida ham, bilimni baholash va va rag'batlantirish ta'limning ijtimoiy rivojlanishning pragmatik kechishini belgilashi bilan bir qatorda, ijtimoiy sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillarini ham ko'rsatib beradi.

Yana bir muhim hujjat bormi bu ham bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 21-maydagi "2004–2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi Farmoni hisoblanadi. Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 9 iyulda "2004–2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Milliy dasturni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim sharti bo'lgan maktab ta'limidagi muammolarni bartaraf etish va maktablarning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish bilan bog'liq mavjud masalalarni bartaraf etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2004-2009

yillarda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonda maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturini amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. Bizning nazarimizda, mazkur umummilliy dastur raqobatbardosh va zamoviy sharoitda bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan kadrlarni yetishtirish orqali kadrlarni yetarli malakaga ega bo'lishlarini nazarga tutganligi shubhasiz.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, ta'lim sohasiga oid milliy dasturlar ta'limning ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustuvorligini hamda bu sohada tub islohotlarni amalga oshirishni nazarga tutgani holda, zamonaviy bilimlarni o'zlashirishni maqsad qilgan yoshlarni tarbiyalash va ularni ma'rifiy rivojlantirish orqali ma'naviy-mafkuraviy ijtimoiy faolligini, ma'naviy-axloqiy kompetentligini yuzaga chiqarishga qaratilganligi ijtimoiy siyosatning muhim jihati sifatida ko'rishimiz mumkin.

Yana bir muhim tomoni borki, islohotlarni yangi davrida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev prezidentlik lavozimiga kirishgan dastlabki kunlardan boshlab eng asosiy e'tiborni mamlakatda zamonaviy – kreativ fikrlaydigan kadrlar bilan jamiyatni rivojlantirish, yuksak ma'naviyatli, mafkuraviy voqeliklarga zaruriy bilimlarga ega bo'lgan zamonaviy yoshlarga ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni da ijtimoiy soha, xususan, ta'lim va ilm-fan sohaslarini takomillashtirish borasida ham muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda bu yillarda ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, o'quv adabiyotlarining zamonaviylashtirish va bilim berishda chet eldagi ilg'or tajribalardan foydalanish, qolaversa, ularni o'z vataniga sadoqatli qilib tarbiyalash orqali milliy an'ana va qadriyatlar saqlab qolish va boyitish yo'naltirilgan ko'nikmalarni shakllantirish muhim kasb etib bordi.

Agar yoshlarning onggi va tafakkurini mafkuraviy jihatdan zabt etishga urinishlar, yot g'oya va mafkuraviy tahdidlar kuchayotgan bir sharoitda eng avvalo ta'limning milliy mafkurani shakllantirishdagi ustuvorligini ta'minlash dolzarb vazifaga aylanganlini ko'rish mumkin bo'ladi. Zero, ta'lim islohotlarida milliy g'oya va mafkura, ma'rifat ma'naviyat mushtarakligini ta'minlash o'z zaruratini aslo yo'qotmaydi.

Bugun tezkor ravishda kechayotgan global jarayonlar, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar va tashabbuskorlikni yaratmoqda. Endi ular jamiyatda kechayotgan jadal islohotlarga faqat tuzatuvchi bo'libgina emas, balki ular o'zi tashabbus bilan chiqib, oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni

shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishdek hayotiy zaruriyatlarni ham teng ravishda olib borishi talabini qo'yimoqda.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-sonli hamda 2020-yil 6-iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 422-sonli qarorlari aynan bugungi ilm-fan va jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyoti uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Negaki, jamiyatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy o'zgarishlarni bugungi jadal islohotlar bilan bog'lab amaliy hayotga moslashtirgan holda o'rganish nafaqat keng jamoatchilik, davlat va nodavlat tashkilotlari, balki uzluksiz ta'lim tizimidagi o'zgarishlarga moslab ham qo'llashni talab etadi.

Zotan, yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda ularni ma'naviy-axloqiy mezonlarga asoslangan holda madaniy-ma'naviy merosni asrav-avaylash va uni rivojlantirishga ehtiyojmand qilib tarbiyalash, shuningdek, milliy mafkura va milliy g'ururni saqlab qolishga yo'naltirish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash jamiyatda ijtimoiy kapital muhiti rivojlanishiga o'ziga xos sotsial omil vazifasini bajaradi.

Shu ma'noda, "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2019 yil 23 avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishiga asosan ning 2020-2021 o'quv yilidan yagona Tarbiya fanini bosqichma-bosqich joriy yo'lga qo'yildi. Aynan Tarbiya fanini uzluksiz ta'lim tizimiga boqichma-bosqich amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad ham umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish nazarga tutiladi.

Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim to'g'risidagi yana bir muhim hujjat 2020-yilning 23-sentabrida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi yangi tahrirdagi Qonuni bo'ldi. Mazkur Qonunda ta'lim olishdagi ma'naviy mafkuraviy jihatlar ham o'ziga xos tarzda ahamiyatini topdi. Xususan, Qonunning 48-moddasida Ta'lim oluvchilarning majburiyatlari berib o'tilgan bo'lib, Ta'lim oluvchilar: o'quv dasturlari asosida bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishi, mashg'ulotlarga qatnashishi, ularga mustaqil tayyorgarlik ko'rishi, pedagog xodimlarning topshiriqlarini bajarishi; ta'lim-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga nisbatan jismoniy va (yoki) ruhiy zo'ravonlik ishlatmasligi va ularning o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilmasligi; ustav (ta'sis hujjati) talablariga, ichki tartib-qoidalariga, vaqtincha yashash joylari qoidalariga va ta'lim faoliyatini tashkil etish hamda amalga oshirishga oid boshqa ichki hujjatlar

talablariga rioya etishi; axloqiy, ma'naviy va jismoniy kamol topishga hamda o'z dunyoqarashini kengaytirishga intilishi; ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi; ta'lim tashkilotining mol-mulkini, moddiy va madaniy boyliklarini asrash shartligi o'z ahamiyatini topdi. Aslida ham, ta'lim va tarbiyani uyg'unlikda olib borish yoshlarni ma'rifiy rivojlantirish bilan bir qatorda ma'naviy-axloqiy kamol topishida va mafkuraviy turli ko'rinishdagi yot ta'sirlardan holi bo'lishida zaruriy faktor hisoblanadi.

Qolaversa, yosh avlod ma'naviy-axloqiy tarbiyasini zamon talablariga moslab olib borish bugungi kunda nafaqat biror bir jamiyat, balki ko'plab rivojlangan davlatlarning ijtimoiy siyosatining asosini tashkil etmoqda.

So'nggi yillarda uzluksiz ta'lim rivojlantirishga qo'yilayotgan talab asosida dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasini o'rganish asosida mamlakatimizda zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ta'lim tizimini rivojlantirish borasidagi sa'y-harakatlar yoshlarning jadal islohotlar davrida mos holda ijtimoiy-ma'naviy ko'nikmalarini shakllantirishga muhim strategiya hisoblanadi. Zero, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'lim tizimini zamon talablariga mos holda tashkil etish bugungi kunning eng muhim masalalaridan biri ekanligini ham ta'kidlab, "Ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida, avvalo, ta'lim pog'onasining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish bilan bog'liq tizimli tadbirlar amalga oshirilishi darkor", deya ta'kilashi ham bugunning zaruriy talablari sifatida ta'limni rivojlantirishda milliy o'zlikni anglashdan kelib chiqishga asoslanadi, deyish mumkin.

Yangi asr murakkab sharoitda yosh avlodning dunyoqarashi ongi va qalbi qanday bo'lishi, kelajakda qanday inson bo'lib yetishishi, ishbilarmon va jonkuyar bo'lishi, davlat va jamiyati hayotida befarq bo'lmasligi, boshqaruvga nisbatan legitim bo'lishi, ijtimoiy hayot ko'nikmalarini to'g'ri idrok qila olishi uning erkin fuqaro, faol shaxs bo'lishini ta'minlaydi.

Demak, jamiyatimizda ta'limni rivojlantirishning milliy tizimiga asos solinishi mamlakatda ma'naviy-mafkuraviy ishlarning izchil va samarali amalga oshirishining kafolati bo'lib xizmat qiladi va bugungi ijtimoiy siyosatimizning asosiy mohiyati ham shunga asoslangan.

Ma'naviy-mafkuraviy ishlarni ta'lim va tarbiya vositasida singdirish, jamiyat va davlatda, avvalo, yosh avlodni oilada, ta'lim muassasasida, mahalla-kuyda, jamoat orasida tegishli tashkilotlarning ijtimoiy sherikligi, ijtimoiy hamkorlik asosida tashkil etilishi, buning uchun, uzluksiz ta'lim va tarbiyani uyg'unlikda olib borishning ma'naviy asoslarini takomillashtirish yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqish va amaliy tavsiyalarni ko'paytirib borish o'z zaruratini yo'qotmaydi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi yangilanish jarayonlarida milliy g'oyaning ta'sirchanligini ta'minlashga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolarni bartaraf etish bo'yicha aniq maqsadli va manzilli ishlarni amalga oshirish muhim pragmatik va nazariy asoslarini beligab beruvchi harakat mexanizmi O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasining amalga oshirilishi ham mafkuraviy-siyosiy islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga huquqiy asos bo'ldi.

Qolaversa, 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi davlat va jamiyat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy faoliyatlar bilan bir qatorda ma'naviy-mafkuraviy faoliyatni ham rivojlantirishga qaratilganligini bilan ajralib turadi. Xususan, bunda jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish masalasi qo'yilgan. Bu ayni damda bugun jadal islohotlar davrida jamiyat a'zolarining sog'lom dunyoqarashigi rivojlantirish orqali jamiyatdagi ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarni takomillashtirishga qaratilganligi bilan belgilanadi.

Oxirgi yillarda mamlakatimizda jamiyat ma'naviy asoslarini mustahkamlash, mafkuraviy omillarni rivojlantirish, ijtimoiy shaxs maqomidagi ma'naviy sog'lom avlodni voyaga yetkazish, ular tafakkurini jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga mos holda amaliy hayot tamoyillari bilan boyitish va bunga eltuvchi vositalarni takomillashtirish bevosita jamiyatda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va takomillashtirish bilan bog'liq holda kechishini ko'rsatib bermoqda.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, ta'lim sohasiga oid milliy dasturlar ta'limning ijtimoiy taraqqiyot sohasida ustuvorligini hamda bu sohada tub islohotlarni amalga oshirishni nazarga tutgani holda, zamonaviy bilimlarni o'zlashirishni maqsad qilgan yoshlarni tarbiyalash va ularni ma'rifiy rivojlantirish orqali ma'naviy-mafkuraviy ijtimoiy faolligini, ma'naviy-axloqiy kompetentligini yuzaga chiqarishga qaratilganligi ijtimoiy siyosatning muhim jihati sifatida ko'rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Мирзиёев Ш. Жисмоний ва маънавий етук ёшлар – эзгу мақсадларимизга етишда таянчимиз ва суянчимиздир / «Халқ сўзи» 2017 йил 1 июль.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. -Тошкент: Ўзбекистон. 1998. - Б. 7
3. «Халқ сўзи» газетаси, 1991, 18 сентябрь.
4. Qarang: 1992 йил 2 июлда қабул қилинган “Таълим тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикасининг Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ахборотномаси. – 1993. –№ 6. –268-модда.

5. Qarang: Исмадова Н.Қ. Ўзбекистонда халқ таълими тизимидаги ислохотлар босқичлари ва муаммолари (1991-2021 йиллар)./ Тарих.фан.фалс.док. (PhD) ...дисс. - Т.: 2022. – 192 б.
6. Исмадова Н.Қ. Ўзбекистонда халқ таълими тизимидаги ислохотлар босқичлари ва муаммолари. Монография. –Т.: Zamin nashr, 2023. –Б 38.
7. Давлетова М. Таълим-миллат тақдири демак // Жамият ва бошқарув. 2001. -№4. – Б. 56-57.
8. Тўраев, Ш Маънавий-маърифий ишлар ва уни ташкил қилиш методикаси [Матн] Ш.Тураев. -Т.: Paradigma. 2017. -Б. 44-45.
9. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатини-миллат қилишга хизмат этсин. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан курашимиз. Т.7. -Т.: “Ўзбекистон”, 1999, -Б. 96-97.
10. Мухтаров А. Миллий ғоя такомилида эҳтиёж ва манфаатлар бирлиги. Фалс.фан.док. ...дисс. -Т.: 2011. -Б. 164.
11. Тўраев, Ш Маънавий-маърифий ишлар ва уни ташкил қилиш методикаси [Матн] Ш.Тураев. -Т.: Paradigma. 2017. -Б. 48.
12. Мухтаров А. Миллий ғоя такомилида эҳтиёж ва манфаатлар бирлиги. Фалс.фан.док. ...дисс. -Т.: 2011. -Б. 159-160.
13. Исмадова Н.Қ. Ўзбекистонда халқ таълими тизимидаги ислохотлар босқичлари ва муаммолари. Монография. –Т.: Zamin nashr, 2023. –Б. 46-47.
14. Qarang: Рустамова Д.Д. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида таълим тизимининг ўрни ва аҳамияти / Замоновий таълим . 2014, №2. -Б. 5.
15. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 28-сон, 320-модда; 2009 й., 5-сон, 36модда; 2011 й., 7-8-сон, 63-модда.
16. Исмадова Н.Қ. Ўзбекистонда халқ таълими тизимидаги ислохотлар босқичлари ва муаммолари (1991-2021 йиллар)/ Тарих.фан.фалс.док. (PhD) ...дисс. -Т.: 2022. –Б. 62.
17. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 07.02.2017 йилдаги ПФ-4947-сон Фармони, <https://lex.uz/docs/3107036>.
18. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 6 июлдаги “Умумий ўрта таълим муассасаларида "Тарбия" фанини босқичма-босқич амалиётга жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида” 422-сонли қарори. Манба: <https://lex.uz/docs/-4885018>.
19. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son. <https://lex.uz/docs/-5013007>.

20. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021.
464 бет. –Б. 192.–Б. 23–29.